

Navoiy davlat universitetida davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyini barpo etish loyihasi yuzasidan jamoatchilik muhokamasi
e'loni

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda xususiy sektorga berilayotgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zero, davlat tomonidan ko'rsatiladigan ba'zi xizmatlarning xususiy sektorga o'tkazilishi nafaqat mazkur sohada ko'rsatiladigan xizmat sifatini oshishini, balki budjet mab'lag'larining samarali sarflanishini ham ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 563-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur qarorda talabalar turar joylarini davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali barpo etish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.10.2024 yildagi **"Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 720-son qarori bilan tasdiqlangan **"Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"**gi nizom 11-bandida aholining, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) iste'mol qiluvchilarning, ulardan foydalanuvchilarning manfaatlarini inobatga olish maqsadida vakolatli davlat organining talabiga binoan DXSh loyihasi jamoatchilik muhokamalari bilan birga tayyorlanishi lozimligi qayd etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Navoiy davlat universiteti hududida davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyi barpo etish loyihasi (*quyidagi ilova qilingan jadvalga qarang*) ishlab chiqilayotganligi ma'lum qilinadi.


Loyiha doirasida tadbirkorlik sub'ekti va Davlat budjeti mablag'lari hisobidan **800 o'rinli** talabalar turar joyi quriladi, Bunda, xususiy sherikka talabalar turar joylarini qurish uchun loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha bir o'ringa to'g'ri keladigan qiymatning **50 foizi**, biroq bazaviy hisoblash miqdorining **100 baravaridan** ortiq bo'lmagan miqdorda subsidiya ajratiladi.

Loyiha doirasida xususiy sherik va budjet mablag'lari hisobiga qurilgan talabalar turar joyi binosi **30 yildan** so'ng davlat sherigiga soz holda qaytariladi.

Xususiy sherik 30 yil davomida talabalarga yotoq joy xizmatlarini ko'rsatadi, talabalar turar joyini soz holda saqlash va sifatli xizmat ko'rsatish xususiy sherik xisobidan amalga oshiriladi. Yotoq joy uchun talabalar tomonidan to'lanadigan to'lov miqdori davlat sherigi bilan kelishilgan holda o'rnatiladi. Loyiha joylashuvi aniq koordinatlari – 153474.055, 572285.978



3 ta 8 qavatli 800 o'rinli yotoqxona



Mazkur loyiha yuzasidan fikr-mulohazalaringiz mavjud bo‘lgan taqdirda, 2025-yil 8-avgustga qadar quyidagi elektron manzillarga yuborishingiz mumkin:

1. Navoiy davlat universiteti:

210100, Navoiy shahar, Ibn Sino ko‘cha 45-uy.

Elektron pochta manzili: navdpi@exat.uz

Telefon raqami: +998(79)-225-19-30, +998 94 377 87 77

2. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

100095, Toshkent shahri Talabalar ko‘chasi 7-uy.

Elektron pochta manzili: devonxona@edu.uz

Telefon raqami: 55 520-08-08

**Navoiy davlat universiteti hududida davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyi binosini loyihalashtirish, qurish, jihozlash, foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarishni tashkil etish loyihasi to'g'risida
MA'LUMOT**

№	Asosiy ko'rsatkichlar	Ma'lumotlar
1.	Loyihaning nomi	Navoiy davlat universiteti hududida davlat-xususiy sheriklik asosida 800 o'rinli talabalar turar joyi binosini loyihalash, qurish, jihozlash, foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarishni tashkil etish.
2.	Loyiha taraflarining nomi: Davlat sherigi: Xususiy tashabbuskor:	Navoiy davlat universiteti “DAVR KOMPLEKS QURILISH” MCHJ
3.	Loyihaning faoliyat yo'nalishi	Navoiy davlat universiteti talabalari turar joy bilan ta'minlanadi.
4.	Loyihaning joylashgan manzili	Navoiy shahar, Yoshlik MFY hududi , Navoiy davlat universiteti hududi.
5.	Loyihani amalga oshirish muddati	1 yil.
6.	Loyihaning amal qilish muddati	30 yil.
7.	Iste'molchilarga realizatsiya qilinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tariflari	Talabalarga turar joyda yashagani uchun oyiga 375,0 ming so'm
8.	Loyihaning umumiy qiymati	71 770,9 mln so'm
9.	Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hajmi va turlari	Navoiy davlat universiteti hududidan 0,3 ga yer maydoni vaqtincha foydalanishga beriladi; Vazirlar Mahkamasining 563-sonli qarorining 1(b)-bandiga muvofiq, xususiy sherikka talabalar turar joyini qurish uchun loyiha bo'yicha bitta yotoq o'rni hisobida talab etiladigan mablag'ning 50 foizi, ya'ni 32,9 mlrd so'm miqdorda Davlat budjetidan subsidiya ajratiladi.